

циальной литературы и материалов, организации стажировок специалистов-практиков и научных исследователей в зарубежных странах, а также налаживания работ по сертификации практикующих бухгалтеров.

Вместе с тем, процесс широкого внедрения международных стандартов финансовой отчетности в Республики Узбекистан будет рычагом повышения прозрачности, сопоставимости финансовых показателей в международном масштабе и переходу национальной системы бухгалтерского учета и отчетности на качественно новый уровень, а принятые в республике меры по либерализации и развитию экономики, улучшению деловой среды создадут благоприятные условия для активного развития предпринимательской деятельности, что обеспечит основу для дальнейшего продвижения экономических

реформ и повышения имиджа нашей страны на мировой арене.

Таким образом, международные стандарты финансовой отчетности будут служить инструментом составления и представления "легальной" управленческой отчетности, обеспечивая тем самым достоверность, непредвзятость и прозрачность такой отчетности, что говорит о "честном" представлении реального положения дел в организации в случае использования отчетности по МСФО. Основными причинами такой "правдивости" являются заложенные в МСФО приоритет экономической сущности отражаемых в МСФО операций над их юридической формой, концепция консерватизма, а также сегодняшняя "непривязанность" отчетности по МСФО к налоговому учету.

Источник и список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёева «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 07.02.2017 г. [URL:http://lex.uz](http://lex.uz)
2. Казакова Н.А. Аудит для магистров по российским и международным стандартам : учебник / под ред. проф. –М.: ИНФРА-М, 2018. — 345 с. www.dx.doi.org/10.12737/20848.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» ППН№ 4611от 24 февраля 2020 года.

MAHALLIY BUDJETLAR DAROMAD BAZALARI BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

**Soatova Nodira Boboxanovna –
Toshkent moliya instituti,
“Xalqaro moliya-kredit” kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllanishi va daromadlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash masalalari yoritilgan

Tayanch tushunchalar: Davlat byudjeti, soliq, mahalliy byudjet, mahalliy byudjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar, ijtimoiy xarajatlari

Аннотация: В статье анализируется формирование доходов местных бюджетов, оеопределяются основные направления доходов.

Ключевые слова: государственный бюджет, налоги, местный бюджет, планирование местных бюджетов, местные налоги, состояние расходов.

Abstract: In this article it is mentioned formation of local revenues and main spheres of spending costs.

Key words: State budget, tax, local budget, local budget planning, local taxes, public costs.

Zamonaviy davlatchilikda mahalliy byudjet daromadlar siyosatini samarali tashkil etish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi vazifalarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Daromad siyosatini ishlab chiqishda byudjet tizimida soliq va to'lovlarni mobilizatsiya qilish bo'yicha hududlar imkoniyatlarini ob'ektiv baholash, mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmlariga ta'sir etuvchi omillar samaradorligini oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni ba-

holash muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy boshqaruv organlari javobgarligi va vakolatlarini takomillashtirish hamda isloh qilish masalasi rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat moliyasini boshqarish amaliyotidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda mahalliy organlar boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlari demokratik va ijtimoiy standartlar nazarda tutilgan xolda amalga oshirilmoqda.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, hududlar, tuman hamda shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiya muhitini yaxshilash orqali hududlarga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib[1], mazkur vazifalarni ta'minlashda rivojlangan davlatlar ilg'or tajribasini o'rganish, ularning ijobiy natijalarini respublikada qo'llash muhim masala hisoblanadi. Jumladan, hududlarni barqaror rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetlarning mablag'lari etarli emasligi ta'kidlab o'tilgan[2]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahalliy byudjetlar daromadini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda mahalliy byudjet daromadlar siyosatini samarali olib borish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda mazkur masalaga tizimli yondashish muhim o'rin tutadi. Xususan, rivojlangan davlatlarda daromadlar siyosatini samarali olib borishda mahalliy byudjetning daromad bazasini belgilashdagi soliq potentsiali, mahalliy byudjet daromadlar tarkibini shakllantirish tartibi, soliqli daromadlarning turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi mexanizmlari kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjet daromadlari bazalarini takomillashtirishni ta'minlashda muammolarning mavjudligi Respublika va mahalliy byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqlikni yanada takomillashtirish, shubhasiz hududlarni iqtisodiy rivojlantirish, ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barxam berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarining haqiqiy holati

hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy byudjet faoliyatini hamda mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari bazasini o'rganib chiqish va tahlil qilish zarurdir. Yuqoridagi mazkur holatlar mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromad bazasini mustahkamlashning oqilona yo'llari topishni taqozo etadi. Mahalliy budjet daromadlari mahalliy budjetning o'z daromadlari hamda tartibga soluvchi daromadlariga bo'linadi.

Mahalliy budjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar va yig'imlar tashkil etadi. Davlat miqiyosida soliqlar YalMning deyarli uchdan bir qismini qayta taqsimlab, budjetga tushiradi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiradi. Barcha darajadagi mahalliy budjetlarning mustaqilligidan kelib chiqib, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, hududiy daromadlar manbalarini, mahalliy byudjetlar daromadlarini o'z daromadlari yoki birlashtirilgan soliqlar va tartibga solinuvchi soliqlar hisobiga shakllantiriladi[3]. Albatta, mahalliy iqtisodiyot qanchalik rivojlansa daromadlar ko'payadi, mahalliy budjetning o'z daromadlari qancha ko'paysa, uning imkoniyati shuncha barqarorlashadi.

Mahalliy budjet - Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil eguvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy budjetlar daromad bazalari barqarorligini ta'minlash va uni mustahkamlashning asosiy yo'nalishi sifatida birlashtirilgan va tartibga soluvchi daromadlar o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish, ushbu nisbatni ifodalashda birlashtirilgan daromadlarning salmog'ini amaldagi darajaga nisbatan birmuncha oshirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qatoriga quyidagilarni kiritish, bizningcha, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Budjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil qilishi budjetning iqtisodiyotni tartibga soluvchilik vazifasini kuchaytiradi.

Soliqlarning budjet daromadlarining manbai sifatidagi mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan nazariy qarashlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki:

- birinchidan, soliqlar davlatning funktsiyalarini bajarishning asosiy va birlamchi moliyaviy manbai hisoblanadi;
- ikkinchidan, soliqlarning milliy daromadni qayta taqsimlashdagi roli bevosita davlatning


iqtisodiyotga aralashuvi darajasi bilan belgilanadi;

- uchinchi, soliqlardan budjetning iqtisodiy mazmundagi xarajatini moliyalashtirishda foydalanish masalasiga alohida e'tibor berish amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish davlatning iqtisodiyotga faol moliyaviy aralashuvini zarur qilib qo'yadi;

- to'rtinchi, soliqlar tortish tamoyillarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik soliq tushumlari-ning barqarorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi;

- beshinchidan, respublikamiz iqtisodiyoti-ning investitsion resurslarga bo'lgan yuqori darajadagi talabini qondirish maqsadida soliqlar-ning jamg'armalarga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Mahalliy budjetlarning iqtisodiy faoliyat olib borishlari ularning o'z daromadlar manbaini mavjudligi bilan xarakterlanadi. Mahalliy budjetlar o'z hududida turli yo'nalishdagi vazifalarni hal qilish uchun yetarli bo'lgan moliyaviy mablag'ga ega bo'lishlari kerak.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarning daromadlarini balanslash manbalari

Manba: G.Qosimova. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijro etish. O'quv qo'llanma. 2008 y., 128-b.

Budjet daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy bo'lmasdan, ular mamlakat taraqqiyoti va davlatning oldidagi vazifalarning o'zgarishiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa resurslarni qayta ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadini ko'zlaydi.

Mahalliy budjetlarning daromadlari asosan umumdavlat soliqlaridan hamda mahalliy soliqlar va yig'imlari hisobidan shakllanadi. Umumdavlat soliqlarining bir qismi, ya'ni yuridik shaxslardan daromad (foyda) solig'i, jismoniy shaxslardan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i mahalliy budjetlar o'rtasida belgilangan me'yorlar bo'yicha har yili qonuniy yo'l bilan hukumat tomonidan o'rnatiladi.

Umumdavlat soliqlarining boshqa turlari ham mahalliy budjetlarning daromad bazalarini mustahkamlash maqsadida mahalliy budjet daromadlariga to'liq hajmda kiritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari[4]:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan: yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i; yagona soliq to'lovi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq; qo'shilgan qiymat solig'i; aktsiz solig'i; yer qaridan foydalanlik uchun soliq; suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq.

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan: obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzil-mani rivojlantirish solig'i; transport vositalariga benzin, dizel yo-qilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq; mol-mulk solig'i; yer solig'i; yagona yer solig'i; ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im.

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllan-tiriladi.

Boshqa daromadlarga:

➤ davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar,

➤ davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar,

➤ qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar

➤ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining daromatlari hisoblanadi.

2-jadval

2019 yil uchun ayrim mahalliy soliqlar va yig'implarning chegaralangan stavkalari

Soliqlar va yig'implarning turlari	Chegaralangan stavkalar (har oyda, so'mda)			
Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im:	Toshkent shahri	Nukus shahri, viloyatlar markazi	Boshqa shaharlar	Boshqa aholi punktlari
alkogolli mahsulotlar, shu jumladan umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogolli mahsulotlarning realizatsiya qilinishi	1216400	1013700	810900	608200
qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	810900	709600	608200	405500

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 4086-sonli qarori 21-ilovasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Respublikamizda mahalliy soliqlar va soliqsiz tushumlardan shakllangan daromadlar mahalliy budjetlar xarajatlarining juda kam qismini qoplaganligi tufayli, mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismi budjetlararo tartibga solish orqali shakllantiriladi.

Tartibga solinadigan daromadlar - bu yuqori budjetlardan quyi budjetga, ularning daromad va xarajatlarini boshqarib turish (balanslashtirish) maqsadida beriladigan pul mablag'lari majmuasi ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019 yil ayrim mahalliy soliqlar va yig'implarning chegaralangan stavkalari miqdori hududlarni 4 ta guruhga (Toshkent shahri, Nukus shahri va viloyatlar markazi, boshqa shaharlar, boshqa aholi punktlari) ajratgan holda alohida belgilangan.

Tartibga solinadigan daromatlarga ushbu maqsadlar uchun ishlatiladigan barcha moliyaviy

resurslar, ya'ni alohida umumdavlat soliqlaridan o'tkazmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar, yuqori budjetdan o'zaro hisob-kitob asosida olingan mablag'lar kiradi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019 yil uchun mahalliy budjetlarga so'nggi iste'molchi tomonidan undiriladigan soliqlarning ayrimlari keltirilgan. Bunga ko'ra benzin, dizel yoqilg'isi, suyultirilgan gazning 1 litri uchun to'lov miqdori 285 so'm qilib belgilangan 1 m3 siqilgan gaz uchun to'lov miqdori 360 so'm etib belgilangan. Shuningdek, quyidagi jadvalda 2019 yil uchun ayrim mahalliy soliqlar va yig'implarning chegaralangan stavkalari keltirilgan. E'tibor beradigan bo'lsak, Toshkent shahri uchun belbilangan miqdor boshqa hududlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Quyidagi jadvalda 2014-2019 yillarda mahalliy budjetlarning daromatlari manbai dinamikasi keltirilgan.

3-jadval

2014-2019 yillarda mahalliy budjetlarning daromatlari manbai dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.
Mahalliy budjet jami daromatlari, % da	100	100	100	100	100	100
Mahalliy budjetlarga berilgan subvensiyalar (2018 yildan boshlab maqsadli ijtimoiy transfertlar) ulushi, % da	26,0	17,9	13,5	7,0	41,4	25,0
Mahalliy budjetlarning boshqa daromatlari, % da	74,0	82,1	86,5	93,0	58,6	75,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli yillardagi "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099, 2270, 2455, 3454 va h.k. qarorlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi 3-jadvalda 2014-2019 yillar uchun mahalliy budjetlarning daromadlari manbai dinamikasi keltirilmoqda. Mahalliy budjetlarning daromadlari 2014 yilda barcha daromadning 74,0 %ni tashkil etdi. Bu miqdor 2015 yilda 82,1 %, 2016 yilga 86,5% va 2017 yilda 93,0 %ni tashkil etgan. Ushbu miqdor 2019 yilda kamaygan va 75 % miqdorida belgilangan. Albatta, ushbu holatni ijobiy baholay olmaymiz. Chunki, mahalliy budjetlarning respublika budjetiga qaramligi qanchalik kamaysa – shuncha yaxshi hisoblanadi. Xalq ta'limi muassasalariga ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov hamda ijtimoiy nafaqani moliyalashtirish uchun subventsiyalar (2018 yildan boshlab maqsadli transfert to'lovlari) 2014 yilda 26,0 %, 2015 yilda 17,9%, 2016 yilda 13,5 %, 2017 yilda 7,0 %, 2018 yilda 41,4 %ni tashkil etgan. 2019 yilda esa 25,0 % miqdorida belgilangan. Demak, ko'rinadiki, 2014-2017-yillar mobaynida mahalliy budjetlarga berilgan subventsiyalar mahalliy budjet daromadlari tarkibida kamayish tendensiyasiga ega. (2014 yilda 24 % dan 2017 yilga kelib 7,0 %). Ammo, 2018 yildan boshlab yana oshgan. Ushbu holatni ham ijobiy baholay olmaymiz.

Yuridik va jismoniy shaxslarga avtomobil-larga yonilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz sotishda transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz narxi avtotransport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni hisobga olgan holda belgilanadi. 4-jadvalda 2019 yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari, respublika budjetidan maqsadli ijtimoiy transfertlar miqdori keltirilgan

2019 yilda mahalliy budjetlarning jami daromadi 31083,0 mlrd. so'm, xarajatlari esa 38846,1 mlrd.so'mni tashkil etishi belgilangan. Maqsadli ijtimoiy transfertlarga 7763,1 mlrd. so'm ajratilgan. 2019 yilda 7 ta viloyatga maqsadli ijtimoiy transfertlar ajratilgan.

Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol fondlari alohida ma'muriy-hududiy birliklar va aholining turli ijtimoiy guruhlari orasida taqsimlanadi. Shu bilan birga, mahalliy byudjetdan mahalliy sanoat, oziq-ovqat sanoati, kommunal xo'jalik kabi aholi turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari ham moliyalashtiriladi.

4-jadval

2019 yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari, respublika budjetidan ajratiladigan maqsadli ijtimoiy transfertlar miqdori, mlrd.so'mda

Hududlarning nomi	Tegishli budjetlarda qoldiriladigan daromadlar	Tegishli budjetlarga biriktirilgan xarajatlari	Maqsadli ijtimoiy transfertlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2683,5	2683,5	
Andijon viloyati	1912,7	3292,0	1379,3
Buxoro viloyati	2266,6	2266,6	
Jizzax viloyati	1106,2	1836,8	730,6
Qashqadaryo viloyati	3493,7	3493,7	
Navoiy viloyati	1495,8	1495,8	
Namangan viloyati	1784,7	3096,9	1312,2
Samarqand viloyati	2270,9	4031,8	1760,9
Surxondaryo viloyati	1657,2	2872,0	1214,8
Sirdaryo viloyati	736,3	1217,4	481,1
Toshkent viloyati	3169,0	3169,0	
Farg'ona viloyati	4038,0	4038,0	
Xorazm viloyati	1232,2	2116,4	884,2
Toshkent shahri	3236,2	3236,2	
Jami	31083,0	38846,1	7763,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 4086-sonli qarori 28-ilovasiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Mahalliy iqtisodiy siyosatga bo'lgan zaruriyat aniq urinishlar bilan jamiyatda bozor iqtisodiyotini tartiblash talabiga, aholi turmush darajasining yuqori standartlarini ta'minlay oladigan, hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va tabiiy resurs potentsialining barqaror ishlatilishini ta'minlash uchun iqtisodiy ha-

yotning hududiy taraqqiyotga bo'lgan talablariga asoslanadi.

Bugungi kunda budjetlarni tartibga solishning bir necha usullari amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda, jumladan, umumdavlat soliqlari hisobidan belgilangan ma'lum qismini hududiy budjetlar ixtiyorida qoldirish uslubi jahon tajri-

basida keng tarqalgandir. Umumdavlat soliqlari hisobidan ma'lum belgilangan qismini mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldirish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda asosan hududlarning moliyaviy ahvoli va o'z daromadlarining hajmi; hududlarda umumdavlat vazifalarining va dasturlarning mavjudligi; tovarlar va xizmatlar narxlaridagi farqlarning mavjudligi; aholi soni, tarkibi va zichligi; hududlarda joylashgan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning budjet mablag'lariga bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib quyidagi xulosalar shakllantirildi. Iqtisodiyotning barcha sohalaridagi jarayonlarning kuchayishi, dunyodagi iqtisodiy globallashuv darajasining ortib borishi bilan moliyaviy qarorlar qabul qilishda so'nggi ma'lumotlarni qabul qilish, yig'ish, qayta ishlash va ularni chuqur tahlil etishni muhim ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda.

lishda so'nggi ma'lumotlarni qabul qilish, yig'ish, qayta ishlash va ularni chuqur tahlil etishni muhim ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan maqsadli foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy zahiralarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. G.Qosimova. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijro etish. O'quv qo'llanma. 2008 y., 128-b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". –T.: "O'zbekiston" 2013 yil 26 dekabr.

МЕРЫ ОПТИМИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В ЦЕЛЯХ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЛОГОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Базаров Фуркат Одилович –
ТФИ, кафедра «Налоги и
налогообложение», к.э.н., доц.

Аннотация. Мақолада солиқ органлари ва солиқ тўловчилар ўртасидаги муносабатларнинг самарали тизимини яратиш имкониятларини шакллантиришга ёрдам берувчи давлат солиқ ҳавфсизлигини таъминлаш мақсадида солиқ назорати тизимини оптималлаштириш бўйича жаҳон тажрибаси кўриб чиқилди.

Калитли сўзлар: солиқ, солиқ назорати, солиқ назорати тизимини оптималлаштириш, солиқ ҳавфсизлиги, давлатнинг солиқ ҳавфсизлиги, таваккалчилик

Аннотация. В статье рассмотрен мировой опыт оптимизации системы налогового контроля в целях обеспечения налоговой безопасности государства, позволяющий определить возможности для построения эффективной системы взаимоотношений между налоговыми органами и налогоплательщиками.

Ключевые слова: налоги, налоговый контроль, оптимизация системы налогового контроля, налоговая безопасность, налоговая безопасность государства, риски.

Abstract. The article addresses world's experience in optimizing tax control system in order to ensure tax security of the country which allows to determine possibilities of building an effective system of relations between tax authorities and taxpayers.

Key words: taxes, tax control, optimization of tax control system, tax security, state tax security, risks.

Общеизвестно, что Правительством Республики Узбекистан в последние годы проводятся широкомасштабные меры по модернизации налоговой системы, важными векторами которой являются коренное совершенствование налогового администрирования, повышение собираемости налогов и других обязательных платежей, снижение

уровня налогового бремени и гарантия защиты прав инвесторов, оптимизация системы налогового контроля в целях обеспечения налоговой безопасности государства.

Налоговая политика Узбекистана, основанная на модернизации всех векторов налоговой реформы, которая вступает, в фазу эффективной реализации, требует рассмотреть